Professor Abdujabbar Abduraxmanov

Professor Abdujabbar Abduraxmanov 1946-yil 9-sentyabr kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. U O’zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida 50 yilga yaqin ilmiy faoliyat olib borgan. A. Abduraxmanov 1977-yilda texnika fanlari nomzodi va 1992-yilda texnika fanlari doktori dissertatsiyasini yoqladi. Uning 164 dan ziyod ilmiy ishlari chop etilgan bo’lib, shulardan 45 tasi chet el jurnallarida bosmadan chiqdi, u 8 ta patentlar muallifi.

Professor A.Abduraxmanov 1987-yildan boshlab Katta Quyosh Qurilmasi optik energetik parametrlarini oshirish borasida nur qaytaruvchi ko’zgularni sozlash usullarini ishlab chiqdi. Bundan tashqari, u ko’zgular sifatini nazorat qilish imkonini beruvchi stendlar yaratish bilan shug’ullandi.

Uning bevosita rahbarligida Katta Quyosh Qurilmasi energetik imkoniyatlariga mos holda materiallar eritish va sintez qilish imkoniga ega bo’lgan texnologik qurilmalari yaratildi. Yaratilgan qurilmalar yordamida olingan keramik materiallar respublikamiz sanoat korxonalarida foydalanilmoqda.

A. Abduraxmonov direktorlik faoliyati davrida Materialshunoslik institutini rivojiga katta hissa qo’shdi. Uning rahbarligida Misr, Hindiston, Amerika, Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi xorijiy davlatlardagi ilmiy tadqiqot markazlari va korxonalari bilan aloqalar o’rnatildi. Shu bilan birga Institut ilmiy xodimlari tomonidan yaratilgan quvvati 1,5 kilovatt bo’lgan kichik Quyosh qurilmasi Hindiston davlatidagi Xaydarobod kukun metallurgiya instituti va Misrning Qohira shahrida joylashgan Tabbin metallurgiya institutiga o’rnatildi.

Uning bevosita rahbarligida Katta Quyosh Qurilmasi energetik imkoniyatlariga mos holda materiallar eritish va sintez qilish imkoniga ega bo’lgan texnologik qurilmalar yaratildi. Ushbu qurilmalar asosida olingan materiallar negizida Materialshunoslik institutida respublika korxonalari buyurtmalari asosida turli keramik mahsulot chiqaruvchi keramika sexi yaratildi. Ishlab chiqilgan keramik materiallar asosida neft va gaz sanoati uchun qo’llanuvchi keramik po’kaklar, gazni tozalashda qo’llanuvchi adsorberlar, filtrlar ishlab

chiqarish yo’lga qo’yildi.

Professor A.Abduraxmanov rahbarligi va bevosita ishtirokida Fanlar akademiyasi “Fizika-Quyosh” Ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi Materialshunoslik institutida mavjud bo’lgan Katta Quyosh Sandonining optik va energetik holati yaxshilandi va jahonda mavjud bo’lgan Quyosh Pechlaridan qolishmasligi ko’rsatildi. A. Abduraxmanov ilmiy rahbarligida 10 nafar fan nomzodi, 2 nafar fan doktori tayyorlandi.

Qobiliyatli olim, mehribon ustoz hamda tashkilotchi A. Abduraxmanov shu yil 75 yoshni qarshilar edi. Professor Abdujabbar Abduraxmanov ko’plab shogirdlari, hamkasblari hamda yaqinlari xotirasida abadiy qoladi.

O’zbekiston Fanlar akademiyasi “Fizika-Quyosh” IIChB Fizika-texnika hamda Materialshunoslik institutlari rahbariyati.